Tangrieva Farida Abdugarimovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARINING IQTISODIY BARQARORLIGIDA INNOVATSION FAOLIYATNING AHAMIYATI	1204
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	
YASHIL MARKETING YONDASHUVI ORQALI KORXONALARDA RESURS SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1211
Sapayev Axmed Durdibayevich	



АНАЛИЗ И ОПТИМИЗАЦИЯ СЕБЕСТОИМОСТИ ПРОДУКЦИИ И РАСХОДОВ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ	1216
Ташмухамедова Карима Саматовна, Якубова Сабина Алишеровна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA FERMER XO'JALIKLARINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH.....	1222
B.B.Seilbekov	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOT VA EKOLOGIK BARQARORLIK SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	1226
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich	
ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF FOREIGN TRADE ACTIVITY IN UZBEKISTAN'S REGIONS AND FORECASTING REGIONAL FOREIGN TRADE UNDER WTO AND EAEU ACCESSION (BASED ON THE CASE OF KAZAKHSTAN).....	1230
Sitara Tojiqulova Sobirjon qizi	
BANKLARNING KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA NAZORAT QILISHNING – COST OF RISK (COR) KO'RSATKICHI TAHLILI	1240
Maxmudov Omon Tuxtayevich	
1-WIRE PROTOKOLI ASOSIDA BIOSIGNALLARNI UZATISH JARAYONI VA MA'LUMOTLAR STRUKTURASINI LOYIHALASH	1245
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJIRIBA VA UNING XUSUSIYATLARI	1250
Ibrohimov Davronbek Muhammadi o'g'li	
ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНЕ.....	1257
Хамидходжаева Назира Махкамовна	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI AYLANMA MABLAG'LARINI BOSHQARISH METODOLOGIYASI.....	1260
Taspanova Ayzada Kenjebayevna	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT SANOATI VA UNING RIVOJLANISH HOLATI	1264
Xusanova Gavhar	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LTE VA NR TARMOQLARINING BIRGALIKDA ISHLASHINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI.....	1270
Toshmatov Salohiddin Zayniddinovich	
THE OPPORTUNITIES OF PERSONALIZING TOURISM SERVICES THROUGH ARTIFICIAL INTELLIGENCE	1276
Olimov Davron Olimovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ РАДИОЖУРНАЛИСТИКИ В ЭПОХУ ЦИФРОВОГО ЭФИРА: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА И ГЛОБАЛЬНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ	1281
Мамадалиева Шахноза Абдумаликовна	
EFFECTIVE MANAGEMENT OF ADMINISTRATIVE PERSONNEL IN UZBEKISTAN'S PUBLIC UNIVERSITIES	1289
Inoyatov Orzubek Saidvaliyevich	
ZAMONAVIY MENEJMENTDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	1297
Igamberdiyeva Nasiba Babadjanovna	
DAVLAT QIMMATLI QOG'OZLARI MILLIY MOLIYA BOZORINI BARQARORLASHTIRISH OMILI SIFATIDA.....	1304
Rabiyev Akram Homitovich	
AKTSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INNOVATSION JARAYONLARNI KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMI ASOSIDA TARTIBGA SOLISH ISTIQBOLLARI	1311
Xujaxonov Nuriddin Nasrullayevich	
ВОПРОСЫ ВНЕДРЕНИЯ И РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА	1318
Худайберганава Зарофат Захидовна	
К ВОПРОСУ О РАССМОТРЕНИИ РИСКОВ ЛЕГАЛИЗАЦИИ НЕЗАКОННЫХ ДОХОДОВ В УЧЕБНЫХ МАТЕРИАЛАХ ПРОФИЛЬНЫХ ПРЕДМЕТОВ ПО БАНКОВСКОМУ АУДИТУ.....	1324
Мухамедова Севара Абдуллаевна	



MINTAQA SANOATIDA RAQAMLI XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIIYA JARAYONI	1336
Norov Murodjon Maxmudovich	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH: HOLATI, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	1342
Maxkamov Otabek Muhammadjonovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA O'RTA VA UZOQ MUDDATLI DAVRDA DAVLAT QARZINI BOSHQARISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI.....	1351
Egamberdiyev Jonibek O'ralovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI O'RTASIDA RAQOBAT VA UNING MUAMMOLARI	1354
Mardonov Bahodir Bahronovich, Abdanov Rahmatillo Abdig'afurovich	
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH HAMDA TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1360
Xamdamov Shaxzod Ilxom o'g'li	
ЭКОНОМИЧЕСКИЙ МЕХАНИЗМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ДЛЯ РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	1365
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	
SAVDO JARAYONIDA MARKETING TEXNOLOGIYALARINI QO'LLANILISHI	1371
Jalalova Dildora Jamolovna	
PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN: LESSONS FROM SOUTH KOREA.....	1375
Karshieva Marjona Alisher kizi	
TURIZM XIZMATLARI EKSPORTI VA YASHIL IQTISODIYOTNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	1380
Qurbonova Malika Ahmad qizi	
SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	1384
Uzoqov Farhod G'afforovich	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI MEKANIZMI VA UNING RAQAMLI IQTISODIYOTDAGI RIVOJLANISHI....	1388
Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich	
BANKLARDA MUAMMOLI KREDITLAR BILAN ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1392
Mitillayev Ibrohimjon Tursunpulatovich	
BUG'DOY HOSILDORLIGI VA YALPI HOSILINI TAHLIL QILISH HAMDA HISOBLASH USULLARI	1396
Uzoqova Ziyodaxon Abdug'afforovna	
RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI	1402
Muyassarzoda Fayziyeva	
MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH ORQALI AGRORESURLAR BOZORI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI OSHIRISH MASALALARI	1408
Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, Tashmuxeimova Yayra Atxamovna	
JAHONDA KREATIV SOHALARNI RIVOJLANISH EVOLYUTSIYASI VA HOZIRGI DAVRDA IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI.....	1414
Ismailov Azizbek Ruzimaxammatovich	
OSIYO DAVLATLARI RAQAMLI JURNALISTIKADA AYOLLAR ISHTIROKI (JANUBIY KOREYA, HINDISTON, YAPONIYA) DAGI ZIDDIYATLAR.....	1425
Zakirova Oisha	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: СОЦИОЛОГИЯ РОЛИ ЖЕНЩИН И ГЕНДЕРНОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ В ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ОБЩЕСТВЕ	1431
Сиддикова Гулноза Абдумаликовна	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBINI YURITISHDA TA'MINOT JARAYONINING AHAMIYATI.....	1437
Nuraliyeva B.	



TEMIR YO'L TRANSPORTI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	1443
<i>Raximov Xasan Shukurjonovich</i>	
XALQARO TASHQI ISHLARDA KATTA MA'LUMOTLAR TAHLILI VA MA'LUMOT DIPLOMATIYASI: AXBOROTNI STRATEGIK RAZVEDKAGA AYLANTIRISH	1450
<i>Kurolov Maksud Obitovich</i>	
TALIM BOSHQARUVIDA "YASHIL KO'NIKMALAR"NI INTEGRATSIYALASH VA BARQAROR RIVOJLANISH: TALABALAR VA TIZIMLARNI IQLIM HARAKATIGA VA YASHIL IQTISODGA O'TISHGA TAYYORLASH.....	1460
<i>Esanova Shohida</i>	
НАЛОГОВАЯ КУЛЬТУРА: СУЩНОСТЬ, ПРОБЛЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ	1468
<i>Хамзина Динара Рашатовна</i>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI TANLANMA KUZATUV ASOSIDA O'RGANISH METODOLOGIYASI.....	1473
<i>Jalolov Ilhomjon Isomiddinovich</i>	
QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA "YASHIL MENEJMENT" TIZIMINI JORIY ETISH	1482
<i>Masharipova Sevara Bekturdi qizi</i>	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNING INNOVATSION USULLARI	1487
<i>Marimova Indira Rasul qizi</i>	
DAVLAT KORXONALARINI ISLOH QILISHNING ZAMONAVIY BOSQICHLARI VA O'ZBEKISTONNING XUSUSIYLASHTIRISH MODELII.....	1492
<i>Murodov Orif Jumayevich</i>	
TIJORAT BANKLARNING RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASHNING XORIY TAJRIBASI	1497
<i>Sultanmuratova Dilrabo Shaylavbekovna</i>	
ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРОБЛЕМЫ, ПЕРСПЕКТИВЫ И ПУТИ ГАРМОНИЗАЦИИ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ	1502
<i>Киличева Ф.Б.</i>	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRINI VAHOLASH	1507
<i>Kurbanov Feruz Pirnazarovich, Quدراتov Islom Ismat o'g'li</i>	
ПЕРСПЕКТИВЫ И ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН	1511
<i>Маденова Эльмира Нзаматдиновна</i>	
ПРАВОВАЯ ПРИРОДА СОГЛАШЕНИЯ О РАЗДЕЛЕ ПРОДУКЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1516
<i>Мансуров Обид Зайнидинович</i>	
РЕКЛАМА ХИЗМАТЛАРИ BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHGA OID NAZARIY QARASHLAR.....	1522
<i>Xamrakulov Azamat Baxritdinovich</i>	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA VOSITACHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI.....	1528
<i>Jalilov Jamshid G'anjionovich</i>	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI SUBEKTLARI O'RTASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MEKANIZMLARINING RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIGA MOS TRANSFORMATSIYASI	1534
<i>To'rayev Shavkat Shuxratovich, Ibadullayev Sanjar Sodiqmuratovich</i>	
YASHIL IQTISODIYOT VA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK.....	1540
<i>Yaxshibayev Ulug'bek Shavkat o'g'li</i>	
THE IMPORTANCE OF SPOKEN ENGLISH IN GLOBAL COMMUNICATION	1545
<i>Dr. Mamatkulova Shohista Jalolovna</i>	
MAHALLIY DAVLAT ORGANLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1549
<i>Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li</i>	
IQTISODIYOTNI DEKARBONIZATSIYALASH: MOHIYATI VA IMKONIYATLARI.....	1554
<i>Xashimova Salima Nigmatullayevna</i>	



RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQRISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1558
B.B.Mambetnazarov, Tureev Atabek Abatovich	
BUXORO VOHASINING MUSULMON ZIYORAT TURIZMI IMKONIYATLARINI BAHOLASH: ACES 3.0 METODIKASI ASOSIDAGI TAHLIL	1563
Kurbanova Mohinur Xabib qizi	
KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQRISH OMILLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI.....	1568
Mustafakulova Nodira Primovna	
BEVOSITA VA BILVOSITA SOLIQQA TORTISHNI OPTIMAL TASHKIL ETISH METODOLOGIYASI	1572
Qodirov Baxodir Qudratovich	
SUT VA SUT MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING USLUBIY JIHATLARI	1577
Normuradov Nurbek Sunatilloevich	
ЦИФРОВИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ВНУТРЕННИЙ АУДИТ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	1581
Шарахметов Шерзад Шаазимович	
O'ZBEKISTON "YASHIL" IQTISODIYOT SARI: QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH METODLARI.....	1588
Qodirov Baxodir Tursunovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNING MOHIYATI VA MAZMUNI.....	1592
Feruz Mirzoyeva Salimovna	
YASHIL O'SISH, YASHIL IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISH: ATAMAVIY VA O'ZARO BOG'LIQLIK MASALASI.....	1597
Djalilov Sardor Sadilloevich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI RIVOJLANTIRISH ORQALI DAROMAD VA XARAJATLARNI DEKLARASIYALASHNING TUTGAN O'RNI	1601
Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich	
DIGITAL ECONOMY AND GREEN TECHNOLOGIES: INNOVATIONS ON THE ROAD TO SUSTAINABLE DEVELOPMENT	1606
Amiriddinova Madinabonu Zayniddin kizi	
CHARACTERISTICS OF APPLYING NEW HETEROCOMPOSITE POLYMER MATERIALS IN ENGINEERING ACTIVITIES.....	1609
Umida Ziyamukhamedova, Mirjalol Abdulakimov	
SIFAT VA RAQOBATBARDOSHLIK.....	1616
Xasanova Robiyaxon Kamoliddin qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
O'ZBEKISTONDA IPOTEKA KREDITLASH JARAYONINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1620
Mardiyev Akrom Djumaboyevich	



O'ZBEKISTONDA IPOTEKA KREDITLASH JARAYONINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Mardiyev Akrom Djumaboyevich

Xalqaro Nordik universiteti
mustaqil tadqiqotchisi
e-mail: a.mardiev@xb.uz

Annotatsiya. Maqolada mamlakatimizda ipoteka kreditlash jarayonining o'ziga xos xususiyatlari, yutuqlari va kamchiliklari keltirilgan. Ipoteka kreditlash jarayonida ishtirok etuvchi tomonlarning majburiyatlari hamda huquqlari tahlil qilingan. Shu bilan birga, ipoteka kreditlash jarayonining umumqabul qilingan shartlarini izchil tatbiq etish bilan birga milliy o'ziga xoslikni saqlab qolish amaliyoti o'rganilgan. Natijada, respublikamizda ipoteka kreditlash jarayonini takomillashtirish bo'yicha qo'llash mumkin bo'lgan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ipoteka kreditlari, ipoteka obyektlari, subsidiya, ipoteka bozori.

Abstract. The article presents the features, advantages and disadvantages of the mortgage lending process in our country. The duties and rights of participants in the mortgage lending process are analyzed. At the same time, the practice of consistent implementation of generally accepted conditions of the mortgage lending process while maintaining national identity is studied, and recommendations are developed that can be used to improve the mortgage lending process in our republic.

Key words: Mortgage loans, mortgage object, subsidy, mortgage market.

Аннотация. В статье представлены особенности, преимущества и недостатки процесса ипотечного кредитования в нашей стране. Проанализированы обязанности и права участников процесса ипотечного кредитования. При этом изучена практика последовательной реализации общепринятых условий процесса ипотечного кредитования при сохранении национальной самобытности, а также разработаны рекомендации, которые могут быть использованы для совершенствования процесса ипотечного кредитования в нашей республике.

Ключевые слова: Ипотечные кредиты, объект ипотеки, субсидия, рынок ипотеки.

KIRISH

O'zbekistonda uy-joy sohasidagi islohotlarni samarali tashkil etish, ipoteka krediti bozorini yanada rivojlantirish hamda tijorat banklari tomonidan o'z mablag'lari hisobidan ajratilgan ipoteka kreditlarini qayta moliyalashtirish mexanizmlarini amaliyotga keng joriy etish maqsadida bir qator ishlar amalga oshirilmogda. Jumladan, ipoteka kreditlari, ayniqsa davlat dasturlari doirasida past daromadli oilalar va birinchi marta uy sotib oluvchilar uchun mo'ljallangan imtiyozli ipoteka kreditlari, uy-joyga bo'lgan talabni oshirmogda. Chunki ushbu kreditlar ko'proq fuqarolarga uy sotib olish imkoniyatini yaratadi. Masalan, past foiz stavkalar yoki davlat tomonidan kafolatlanadigan kreditlar kabi imtiyozlar uy-joyga ega bo'lishni ancha arzonlashtiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank tizimi, bank kreditlaridan oqilona foydalanish imkoniyatini yaratuvchi barqaror moliyaviy tizim sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday moliyaviy tizimga ega mamlakatlar iqtisodiy xatarlarga bardoshli bo'lib, iqtisodiy taraqqiyotga tezroq erishadi. Bank operatsiyalarining ajralmas qismi bo'lgan ipoteka kreditlari mamlakatda barqaror ijtimoiy muhit shakllanishiga xizmat qiladi. Iqtisodchi olimlar tomonidan ipoteka kreditlash bo'yicha o'z davriga mos ilmiy izlanishlar olib borilib, tegishli ilmiy xulosa va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. K. Skinner 2008-yilda yuz bergan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining asosiy sabablaridan biri sifatida banklarning ipotekali kreditlash amaliyotini ko'rsatadi. U ipoteka kreditlari berish jarayonida yuzaga keladigan risklarni boshqarishning ishonchli va samarali usuli sifatida banklarning kredit portfelini diversifikatsiya qilish zarurligini ta'kidlaydi [1].



I. Luzin ipoteka kreditlari haqida shunday fikr bildiradi: ipoteka kreditining boshqa kreditlarga nisbatan past foiz stavkalarini bozorni asta-sekin jonlantirishga xizmat qiladi, chunki uy-joyga ega bo'lish istagi va ipoteka kreditini olish imkoniyati hatto past daromadli oilalarni ham ko'chmas mulk bozoriga jalb etadi [2].

O. I. Lavrushin esa "ipoteka krediti ssuda kapitalining ko'chmas mulk sohasidagi harakati bo'lib, pul mablag'larini qaytarishlik, muddatlilik va foiz to'lashlik shartlari asosida berilishi bilan bog'liqdir" degan fikrni ilgari surgan [3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Ipoteka banki, Davlat statistika agentligi hamda tegishli normativ-huquqiy hujjatlar bazasidan olindi. Olingan ma'lumotlar tahlilida qiyosiy va dinamik usullar, shuningdek, iqtisodiy-statistik tahlil hamda grafik tasvirlash usullari qo'llanilib, ipoteka kreditlash jarayonining rivojlanish xususiyatlari aniqlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda 2010–2023-yillar davomida aholi soni 7,7 million kishiga ko'paydi, bu yiliga o'rtacha 590 ming kishi yoki 1,8 foiz o'sishni tashkil etadi. Bu holat uy-joyga bo'lgan ehtiyojning ortishiga bevosita ta'sir qilgan. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2000–2023-yillar davomida mamlakatimizda tug'ilishlar soni o'limlar sonidan doimiy ravishda yuqori bo'lib kelgan, bu esa aholining tabiiy o'sishini ifodalaydi. Aholining tabiiy o'sish sur'ati yillar davomida, ayniqsa so'nggi yillarda sezilarli darajada oshgan bo'lib, bu yosh aholining ulushi ortib borayotganidan dalolat beradi (1-jadval).

1-jadval. 2010-2023-yillar oralig'ida O'zbekistonda aholi sonining o'sishi dinamikasi¹

Hududlar	Tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari			
	Tug'ulish (ming kishi)	O'lim (ming kishi)	Tabiiy o'sish (ming kishi)	O'zgarish, foizda
Jami	9 718,90	2 022,40	7 696,50	26,4
Samarqand v	1 183,3	212,4	970,9	29,7
Qashqadaryo v	1 027,9	164,5	863,4	31,7
Andijon v	915,3	193,4	721,9	27,0
Farg'ona v	1 051,7	225,8	825,9	25,6
Surxondaryo v	845,1	137,4	707,7	32,5
Namangan v	833,6	159,4	674,3	28,3
Toshkent v	780,5	211,5	568,9	21,5
Xorazm v	511	106,4	404,6	25,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	514,1	110,7	403,4	24,0
Toshkent sh	616,3	218,2	398,1	17,3
Buxoro v	503	106,7	396,3	23,5
Jizzax v	418,8	70,1	348,7	29,9
Navoiy v	276,7	56,1	220,6	25,3
Sirdaryo v	241,5	49,8	191,7	26,4

Bunday demografik tendensiya uy-joy bozori uchun ijobiy ko'rsatkich hisoblanadi, chunki yosh aholi sonining ortishi, ayniqsa birinchi marta uy sotib oluvchilar sonining ko'payishi natijada yangi uy-joylarga bo'lgan talabni oshiradi. 2010–2023-yillar mobaynida tabiiy o'sish darajasi bo'yicha Samarqand (970,9 ming kishi), Qashqadaryo (863,4 ming kishi) va Farg'ona (825,9 ming kishi) viloyatlari eng yuqori ko'rsatkichlarni qayd etgan. Aholi sonining nisbatan kamligi sababli Navoiy va Sirdaryo viloyatlarida tabiiy o'sish darajasi pastroq bo'lib, mos ravishda 220,6 ming va 191,7 ming kishini tashkil etgan. Aholi sonining o'zgarishiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri esa migratsiya ko'rsatkichidir (2-jadval).

¹ Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti (O'zbekiston ko'chmas mulk va ipoteka bozori 2023-yil) Toshkent 2024-yil S 42 bet.

2-jadval. 2010-2023-yillar oralig'ida mamlakatimizda aholi migratsiyasi dinamikasi²

Hududlar	Migrasiya ko'rsatkichlari			
	Xorijdan ko'chib kelganlar (ming kishi)	Xorijga ko'chib ketganlar (ming kishi)	Migratsiya saldosi (ming kishi)	O'zgarish, foizda
Jami	29,1	375,5	-346,4	-1,2
Samarqand v	3,3	10,5	-7,3	-0,2
Qashqadaryo v	2,7	3,3	-0,6	0,01
Andijon v	2,7	3	-0,3	0,01
Farg'ona v	3,2	10,4	-7,1	-0,2
Surxondaryo v	2,2	2,4	-0,2	0,01
Namangan v	2,4	3,5	-1,1	0,01
Toshkent v	2,6	87,8	-85,1	-3,2
Xorazm v	1,6	6,2	-4,6	-0,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1,7	86,9	-85,2	-5,1
Toshkent sh	2,3	92,3	-90	-3,9
Buxoro v	1,7	5,9	-4,2	-0,3
Jizzax v	1,2	8,9	-7,7	-0,7
Navoiy v	0,9	45,2	-44,3	-5,1
Sirdaryo v	0,7	9,2	-8,5	-1,2

Mamlakatga xorijdan ko'chib keluvchilar va xorijga ko'chib ketuvchilar sonining o'zgarishi ham demografik vaziyatga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Migratsiya ko'rsatkichlarini tahlil qiladigan bo'lsak, 2010–2023-yillar davomida mamlakatimizga 29,1 ming kishi xorijdan ko'chib kelgan bo'lsa, 375,5 ming kishi xorijga ko'chib ketgan. 2010-yildan buyon respublika aholisi migratsiya sababli 1,2 foizga kamaygan bo'lsada, tabiiy o'sish hisobiga 26,4 foizga ko'paygan.

Hisob-kitoblarga ko'ra, 2024–2040-yillar davomida O'zbekiston aholisi yiliga o'rtacha 1,7 foizga ortib boradi va 2040-yilga kelib 48 million kishiga yetishi prognoz qilinmoqda. Xususan, 2040-yilda Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarida aholi soni 2023-yilga nisbatan 1,5 million kishiga ko'payishi kutilmoqda, Farg'ona vodiysi aholisi esa 14,0 million kishiga yetishi taxmin qilinmoqda (3-jadval).

3-jadval. Uy-joyga bo'lgan talabni belgilovchi asosiy omillar³

Iqtisodiy omillar	Demografik omillar	Davlat siyosati bilan bog'liq omillar	Infratuzilma va qulayliklar
Daromadlar	Aholi o'sishi	Uy-joy dasturlari	Asosiy xizmatlarning mavjudligi Transport va aloqa Ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalari
Bandlik		Yerdan foydalanish	
Foiz stavkalar	Urbanizatsiya	Xorijiy investitsiyalar	
Iqtisodiy o'sish	Aholi tarkibi	Doimiy ro'yxatga olish tartibi	
Inflatsiya			

Aholining jamg'armalarini uy-joy sotib olish uchun investitsiya sifatida yo'naltirishi uy-joyga bo'lgan talabni oshiradi. Bundan tashqari, real daromadlar oshgani sayin, aholining kreditga bo'lgan talabi ham ortadi, chunki ularning qarz olish imkoniyatlari yaxshilanadi. Bu esa banklar va moliya institutlari tomonidan uy-joy xaridi uchun kreditlar ajratishni rag'batlantiradi, natijada uy-joy bozori yanada faollashadi.

2023-yilda respublika bo'ylab barcha hududlarda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real daromadlar 2017-yilga nisbatan o'rtacha 2,7 barobar, 2010-yilga nisbatan esa 8,9 barobarga oshgan. Shu bilan birga, hududlar

2 Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti (O'zbekiston ko'chmas mulk va ipoteka bozori 2023-yil) Toshkent 2024-yil S 42 bet.


3 Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti (O'zbekiston ko'chmas mulk va ipoteka bozori 2023-yil) Toshkent 2024-yil S. 38-bet.



kesimida real daromadlar o'rtasidagi tafovut sezilarli darajada kengayib bormoqda. 2010-yilda 14 ta hudud bo'yicha jon boshiga real daromadlar standart og'ishi 0,775 ni tashkil qilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2017-yilda 2,283 ga, 2023-yilda esa 7,072 ga yetgan. Ayrim hududlarda daromadlar o'rtasidagi tafovut kengaygani sababli, bu hududlarda uy-joy narxlari boshqa hududlarga nisbatan tezroq o'sishi mumkin.

Markaziy hududlarda uy-joy narxlarining oshishi natijasida aholining bir qismi yashash uchun shahar markazlaridan ko'ra chekka hududlarni tanlashga moyil bo'ladi. Bu esa markazlarga yaqin tumanlarda yangi turar joy komplekslarining qurilishi hamda shahar atrofi infratuzilmasining rivojlanishiga turtki beradi. Shu bilan birga, daromad darajasi yuqori bo'lgan hududlarda aholi o'z mablag'larini ko'chmas mulkka investitsiya qilish orqali qo'shimcha daromad olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, ko'chmas mulk bozorida faollikni kuchaytiradi va yangi qurilish loyihalarini rag'batlantiradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, aholining uy-joy sotib olishda ipoteka kreditlariga bo'lgan talabi yildan yilga ortib bormoqda. Buning yaqqol isboti sifatida so'nggi yillarda ajratilgan ipoteka kreditlari hajmining sezilarli o'sishini keltirish mumkin (1-rasm).



1-rasm. 2017-2023-yillarda mamlakatimizda ajratilgan ipoteka kreditlari bo'yicha ma'lumot

Hozirda ipoteka kreditlarini moliyalashtirish Iqtisodiyot va moliya vazirligi mablag'lari, tijorat banklarining o'z mablag'lari, davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar hamda O'zbekiston Ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi mablag'lari hisobidan amalga oshirilmoqda. 2023-yilda Iqtisodiyot va moliya vazirligi mablag'lari hisobidan ajratilgan ipoteka kreditlari hajmi 8,66 trln so'mga yetib, jami ajratilgan kreditlarning 51,4 foizini tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich 2022-yilda mos ravishda 8,5 trln so'm va 59,2 foizni, 2021-yilda esa 4,85 trln so'm va 49,5 foizni tashkil etgan. Davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar hisobidan berilgan ipoteka kreditlari hajmi esa 2021-yildagi 2,12 trln so'mdan (21,7 foiz) 2023-yilda 897 mlrd so'mgacha (5,3 foiz) kamaygan.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda so'nggi yillarda ipoteka kreditlariga bo'lgan talab oshib bormoqda. Bu holat tijorat banklari tomonidan izchil ipoteka kreditlash siyosati olib borilayotganidan dalolat beradi. Bundan tashqari, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi tomonidan tijorat banklariga berilayotgan resurs mablag'larining natijasi sifatida ham baholash mumkin. Ipoteka kredit olgan mijozlar soni bo'yicha tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, 2021-yilda 59 570 ta mijoz ipoteka krediti olgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 70 913 taga, 2023-yilda esa 68 395 taga teng bo'lgan. 2024-yilning yanvar-oktabr oylarida esa 47 568 ta mijozga ipoteka kreditlari ajratilgan.

2020–2023-yillarda jismoniy shaxslarga ajratilgan ipoteka kreditlari soni hamda jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan turar joy oldi-sotdi bo'yicha notarial harakatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Toshkent shahri va Toshkent viloyatida o'rtacha hisobda uy-joy sotib oluvchilarning har beshinchisi ipoteka kreditiga murojaat qilgan. Surxondaryo viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo va Xorazm viloyatlarida esa uy-joy oldi-sotdilarining qariyb yarmi ipoteka kreditlari hisobidan moliyalashtirilgan. Bu holat Toshkent shahri va Toshkent viloyatida aholining asosan o'z mablag'lari hisobidan uy-joy sotib olayotganini, boshqa viloyatlarda esa ipoteka kreditlari asosiy moliyalashtirish manbasi ekanini ko'rsatadi.


Shuningdek, 2020–2023-yillarda ipoteka kreditlarining uy-joy xaridlaridagi ulushi kamayib borayotganini kuzatish mumkin. Masalan, 2020-yilda Surxondaryo viloyatida ipoteka kreditlari sonining uy-joy oldi-sotdi operatsiyalariga nisbati 75 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2021-yilda 48 foizga, 2022-yilda 44 foizga,



2023-yilda esa 35 foizga tushgan. Bu aholi tomonidan uy-joy sotib olishda o'z mablag'laridan tobora ko'proq foydalanilayotganini anglatadi.

Davlat tomonidan aholining uy-joy bilan ta'minlanishiga qaratilgan siyosat natijalari yuqoridagi ma'lumotlarda yaqqol aks etmoqda. Shuni alohida ta'kidlash joizki, tijorat banklariga ipoteka kreditlari ajratishda faqat farmon va qarorlar bilan emas, balki Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan arzon resurslar ajratish orqali ham qo'llab-quvvatlov ko'rsatilmoqda. Natijada tijorat banklari faol ipoteka kreditlash tizimini joriy etish orqali ipoteka kreditlari portfelini sezilarli darajada kengaytirmoqda.

Ipoteka kreditlarini moliyalashtirishda tijorat banklarining o'z mablag'lari ulushi yildan yilga ortib bormoqda. 2021-yilda bu ko'rsatkich 8,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 26,3 foizga, 2023-yilda esa 33,9 foizga yetgan. Bu holat bank sektorining ko'chmas mulk bozoridagi faolligi va rolini yanada mustahkamlayotganidan dalolat beradi. 2023-yilda O'zbekiston Iptekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi mablag'lari hisobidan berilgan ipoteka kreditlari hajmi 1,58 trln so'mga yetib, jami ipoteka kreditlari tarkibida 9,4 foizlik ulushni tashkil qilgan (2-rasm).



2-rasm. Ajratilgan ipoteka kreditlari manbalari bo'yicha ma'lumot

So'nggi yillarda ipoteka kreditlarini moliyalashtirishda tijorat banklarining o'z mablag'lari ulushi sezilarli darajada ortib bormoqda. 2021-yilda banklar o'z mablag'lari hisobidan 867 mlrd so'm (jami ipoteka kreditlarining 8,9 foizi) miqdorida ipoteka krediti ajratgan bo'lsa, 2022-yilda ushbu ko'rsatkich 3,79 trln so'mni (26,3 foiz), 2023-yilda esa 5,72 trln so'mni tashkil etdi. Ushbu raqamlar bank sektorining ko'chmas mulk bozoridagi faolligi va rolini yil sayin mustahkamlanib borayotganini ko'rsatadi.


2023-yilda birlamchi bozorga berilgan ipoteka kreditlari hajmi 9,77 trln so'mni tashkil etib, 2022-yildagi 10,78 trln so'mlik hajmga nisbatan 9,4 foizga kamaygan. Shu davrda ikkilamchi bozorga berilgan kreditlar hajmi esa 97,3 foizga oshib, 3,59 trln so'mdan 7,08 trln so'mga yetgan. 2020–2023-yillar davomida respublika bo'yicha jismoniy shaxslarga jami 276 mingdan ortiq ipoteka kreditlari ajratilgan (2020-yilda – 77 274 ta, 2021-yilda – 59 570 ta, 2022-yilda – 70 913 ta, 2023-yilda – 68 395 ta).

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, budjet mablag'lari hisobidan berilgan kreditlar soni yildan yilga kamayib borayotgan bo'lsa-da, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda banklarning o'z mablag'lari hisobidan ajratilgan kreditlar soni sezilarli darajada ortgan. Xususan, 2020-yilda jami ajratilgan 77 274 dona ipoteka kreditlarining 10,3 foizi (7 927 ta) Iqtisodiyot va moliya vazirligi mablag'lari hisobiga, 15,4 foizi (11 891 ta) esa banklarning o'z mablag'lari evaziga berilgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkichlar mos ravishda 54,3 foiz (37 110 ta) va 27,6 foizni (18 890 ta) tashkil etgan.

Bundan tashqari, 2020-yilda ajratilgan ipoteka kreditlarining atigi 0,44 foizi (340 ta) O'zbekiston Iptekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, 2023-yilga kelib ushbu manbalar hisobidan ajratilgan kreditlarning ulushi 9,8 foizga (6 695 ta) yetgan. Bu ko'rsatkich mamlakatda ipoteka kreditlash tizimini diversifikatsiya qilish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash borasida olib borilayotgan siyosatning ijobiy natijalaridan dalolat beradi (3-rasm).



2020-2023 йилларда ajratilgan ipoteka kreditlari soni



3-rasm. Ajratilgan ipoteka kreditlari manbalari bo'yicha ma'lumot

Jami ajratilgan ipoteka kreditlarining hududlar kesimidagi tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, ipoteka bozorining o'rtacha 20 foizdan ortig'i Toshkent shahri hududiga to'g'ri keladi. Xususan, 2020-yilda jami ajratilgan ipoteka kreditlarining 20,4 foizi (15 744 ta), 2021-yilda 18,0 foizi (10 737 ta), 2022-yilda 20,0 foizi (14 152 ta) va 2023-yilda 22,2 foizi (15 161 ta) Toshkent shahrida uy-joy sotib olish uchun berilgan. Shu bilan birga, Toshkent shahrida berilgan ipoteka kreditlarining katta qismi tijorat banklarining o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich yildan yilga oshib bormoqda: 2021-yilda 17,4 foiz, 2022-yilda 41 foiz, 2023-yilda esa 49,1 foizni tashkil etgan. Qolgan hududlarda bu ko'rsatkich o'rtacha 14,3 foiz atrofida shakllangan.

Ikkilamchi bozorga ajratilgan ipoteka kreditlarining jami ipoteka kreditlaridagi ulushi 2021-yildagi 22,4 foizdan 2022-yilda 25,2 foizga, 2023-yilda esa 41,2 foizga yetgan. Hududlar kesimida ikkilamchi bozorga berilgan kreditlar sonidagi eng yuqori o'sish Qoraqalpog'iston Respublikasi (101,5 foiz), Toshkent viloyati (82,2 foiz), Samarqand viloyati (71,2 foiz) hamda Toshkent shahrida (69,3 foiz) qayd etilgan. 2023-yilda birlamchi bozordan yangi uy-joy sotib olish uchun ajratilgan ipoteka kreditlari soni esa respublika bo'yicha barcha viloyatlarda sezilarli darajada kamaygan. Jumladan, Toshkent viloyatida 42,1 foizga, Samarqand viloyatida 35,1 foizga, Farg'ona viloyatida esa 33,8 foizga qisqargan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ipoteka kreditlari sonining uy-joy oldi-sotdi shartnomalari soniga nisbati aholining ko'chmas mulk sotib olishda ipoteka kreditlari yoki o'z mablag'laridan foydalanish darajasini aks ettiradi. 2020–2023-yillar davomida jismoniy shaxslarga ajratilgan ipoteka kreditlari soni hamda jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan turar joy oldi-sotdi bo'yicha notarial harakatlar shuni ko'rsatadiki, Toshkent shahri va Toshkent viloyatida o'rtacha hisobda uy-joy sotib oluvchilarning har beshinchisi ipoteka kreditlariga murojaat qilgan. Surxondaryo viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo va Xorazm viloyatlarida esa uy-joy oldi-sotdilarining qariyb yarmi ipoteka kreditlari hisobidan moliyalashtirilgan. Bu holat Toshkent shahri va Toshkent viloyatida aholining asosan o'z mablag'lari hisobidan uy-joy sotib olayotganini, boshqa viloyatlarda esa ipoteka kreditlari asosiy moliyalashtirish manbasi ekanini ko'rsatadi.

Shuni ham qayd etish kerakki, 2020–2023-yillarda ipoteka kreditlarining uy-joy xaridlaridagi ulushi kamayib borgan. Masalan, 2020-yilda Surxondaryo viloyatida ipoteka kreditlari sonining uy-joy oldi-sotdi operatsiyalariga nisbati 75 foizni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2021-yilda 48 foizga, 2022-yilda 44 foizga, 2023-yilda esa 35 foizga tushgan. Bu aholi tomonidan uy-joy sotib olishda moliyalashtirish manbasi sifatida o'z mablag'laridan tobora ko'proq foydalanilayotganini anglatadi. Shu bilan birga, ipoteka kreditlarida dastlabki badal va foiz stavkalari bo'yicha subsidiyalarni davlat tomonidan to'lab berilishi ipoteka kreditlariga bo'lgan talabning oshishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan.

Jumladan, 2019-yildan boshlab davlat tomonidan qabul qilingan dasturlar asosida daromadi yuqori bo'lmagan va uy-joy sharoitini yaxshilashga ehtiyoji bo'lgan aholiga ipoteka kreditlari orqali uy-joy sotib olish



uchun boshlang'ich badal va kredit foizining bir qismini, shuningdek, yakka tartibdagi uy-joylarni qurish va rekonstruksiya qilish uchun kredit foizining bir qismini qoplash maqsadida davlat budjetidan subsidiya ajratish tizimi yo'lga qo'yilgan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-noyabrdagi PF-5886-sonli, 2021-yil 11-martdagi PF-6186-sonli, 2021-yil 9-dekabrdagi PF-33-sonli hamda 2023-yil 13-apreldagi PF-51-sonli farmonlari asosida hududlar kesimida subsidiya ajratilishini nazarda tutuvchi alohida dastur tasdiqlangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 25-martdagi 182-son qarori bilan tasdiqlangan "Uy-joy sotib olish yoki yakka tartibdagi uy-joylarni qurish va rekonstruksiya qilish uchun fuqarolarga subsidiya to'lash tartibi to'g'risida"gi nizomda daromadi yuqori bo'lmagan va uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo'lgan fuqarolarni aniqlash mezonlari hamda subsidiya hisoblash va to'lash tartibi belgilab berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Скиннер К. Будущее банкинга: мировые тенденции и новые технологии в отрасли. Пер. с англ. – Минск: Гревцов Паблицер, 2009. – с.
2. Крис Дж. Барлтрон, диана Мак Нотон "Банки на развивающихся рынках". М, 1997. – С. 45-62.
3. Банковское дело. Под ред. Лаврушина О.И. – Москва: Финансы и статистика, 2001.- С.74.
4. Лаврушин О.И. Банковское дело. Учебник. -М.: КНОРУС, 2008. – С. 486-487.
5. Панова Г.С. Анализ финансового состояния коммерческого банк. -М: Финансы и статистика, 2001. – С. 137-138.
6. Матовников М.Ю. Банковская система России и долгосрочные ресурсы// Деньги и кредит. – Москва, 2013. -№5. – С.19.
7. Булатских М.М. Проблемы правового регулирования ипотечного кредитования / М.М. Булатских. – Текст: непосредственный // Международный журнал гуманитарных и естественных наук. – 2021. – № 3-1.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
